

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.Sharafiddinov

Farg'ona shahrini rivojlanish tarixidan (XIX asr oxiri – XX asr boshlari) 464

ADABIYOTSHUNOSLIK

N.M.Uluqov, N.Siddiqova

She'riy nutqda toponimlarning qo'llanishi va vazifalari..... 470

M.M.Rakhmatova

Amerika adabiyotida implikaturaning stilistik vositalar orqali ifodalanishi tahlili 475

Sh.B.Xo'jayeva

Alisher navoiyning "Nazm ul-javohir" asarida qofiya sathi va asar poetikasi o'rtasidagi bog'liqlik 479

R.R.Mamatov

Gerta Myuller asarlarining badiiy xususiyatlari 483

D.M.Uralova

Ulug'bek Hamdam hikoyalarida tasviriy ifoda va vositalarning o'rni 486

N.A.Saidova

K.Iyuisning "Narniya yilnomalari"da bolalar fentezi an'analari 489

K.U.Kubayev

Tarixiy haqiqat va badiiy talqin 493

U.Q.Muminova

"Mahbub ul-qulub" dagi turkiy so'zlarning hozirgi o'zbek adabiy tiliga munosabati..... 497

M.Q.Narziqulov

Hozirgi davr tojikzabon ijodkorlarning g'azal janrinirivojlanishidagi roli 502

M.Abdullayeva

Shoir Hayratiy "Sayohatnoma"sining lingvokulturologik tahlili va tadqiqi 512

N.Y.Xolmatova

Badiiy publisistikaning muhim xususiyatlari 515

Y.I.Nishanov

Masal (hikoya) janrining asli xususiyatlari 520

Sh.K.Xashimova

Temur Po'latov ijodi haqidagi ba'zi mulohazalar 523

Q.Sh.Kaxarov, S.Mustafoyeva

O'zbek va nemis tillarida sen/siz murojaat shakllari..... 527

B.I.Dexqonov

Binokorlik terminlarinig o'quv jarayonidagi kommunikativ omillari..... 531

N.A.Rasulova

Lingvistikada funksional tahlilni tavsiflash 535

M.A.Xusenov, Sh.A.Zoitova

Chet tili o'rganish jarayonida ko'p uchraydigag xatoliklar (koreys tili misolida) 540

G.Xonkeldiyeva

Rus tilida padej kategoriyasi tavsifi va undagi muammolar..... 543

X.Abdurahmonov

O'zbek tilshunosligi tarixida mavhum otlarning o'rganilishi va ularning ahamiyati 546

N.Y.Ortiqova

O'zbek tilida zidlanuvchi vositalar poetikasi..... 550

M.M.Abdulxayeva

Tilshunoslikda sinonimiyaning o'rganilishi va uning turlariga oid olimlarning qarashlari..... 556

N.T.Mutodov

O'zbek tiliga fors tilidan o'zlashgan so'zlar va grammatik kotegoriyalar 560

Q.Sh.Kaxarov, M.Y.Abdurazzakova

Shaxslararo muloqotda noverbal muloqotning ahamiyati 567

M.V.Nasridinov

Buyruq nutqiy aktining lingvopragmatik xususiyatlari..... 570

G.Yusupova

Nemis va o'zbek tillari turg'un birikmalarida genderning ifodalanishi 574

SHOIR HAYRATIY "SAYOHATNOMA" SISING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI VA TADQIQI

LINGUOCULTURAL ANALYSIS AND REVIEW OF THE WORK OF THE POET HAYRATI "SAYOKHATNAME"

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ И ОБЗОР ПРОИЗВЕДЕНИЯ ПОЭТА ХАЙРАТИЙ «САЁХАТНАМЕ»

Abdullayeva Manzura¹¹Abdullayeva Manzura

– Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada "Sayohatnoma" janri haqida ma'lumot beriladi. Shoir Hayratiy "Sayohatnoma" asari lingvopoyetik va lingvokulturologik tahlildan o'tkaziladi. "Sayohatnoma"dagi madaniy so'zlarning asar matnidagi o'ri, matndagi ma'no-mohiyati haqida fikr yuritiladi. Madaniy leksik birliklar alohida-alohida ajratilib, tahlilga tortiladi. She'riy satrlar orasidagi mumtoz adabiy so'zlar sharhlanadi. Maqolada matn tahlil qilishni nazariy masalalari haqida so'z boradi. Mazkur tadqiqot ishining ahamiyatli tomoni shundaki, Shoir Hayratiy asarlari hali hanuz adabiyotshunoslar va tilshunoslar tomonidan yetarlicha o'rganilmagan mavzudir.

Аннотация

В данной статье представлена информация о жанре "Путешествия". Проводится лингвопоэтический и лингвокультурологический анализ произведения поэта Хайрати "Путешествие". Роль культурных слов, значение их в тексте рассматриваются в работе "Путешествие". Культурные лексические единицы выделяются и анализируются отдельно. Определены классические литературные слова между поэтическими строками. В статье рассматриваются теоретические вопросы анализа текста. Важным аспектом данной исследовательской работы является то, что творчество поэта Хайрати до сих пор недостаточно изучено литературоведами и лингвистами.

Abstract

This article provides information about the "Travel" genre. A linguopoetic and linguocultural analysis of the poet Khayratiy's work "Travel" is carried out. The role of cultural words, the meaning of them in the text are discussed in "Travel" work. Cultural lexical units are separated and analyzed one by one. Classical literary words between poetic lines are defined. The article deals with the theoretical issues of text analysis. The important aspect of this research work is that the works of the poet Hayrati are still not sufficiently studied by literary scholars and linguists.

Kalit so'zlar: Matn, She'riy asar, badiiy matn lingvopoyetikasi, badiiy tafakkur, madaniy leksik birlik, lingvokulturologiya, satr, band, sheva, lisoniy belgi, semantika, madaniy axborot, arxetip, mifologemalar.

Key words: Text, poetic work, linguopoetics of artistic text, artistic thinking, cultural lexical unit, linguoculturology, line, clause, dialect, linguistic sign, semantics, cultural information, archetype, mythologemes.

Ключевые слова: текст, поэтическое произведение, лингвопоэтика художественного текста, художественное мышление, культурная лексика, лингвокультурология, строка, предложение, диалект, языковой знак, семантика, культурологическая информация, архетип, мифологемы.

KIRISH

O'zbek adabiyoti tarixida sayohatnoma janrida asar bitgan ijodkorlar qatorida Umrzoq Hayratiy (1845-1915) nomi bejiz tilga olinmaydi. U "... ko'p marta Farg'ona vodiysidagi Qo'qon, Marg'ilon, Isfara, Shohimardon, Andijon, O'sh, Arslonbob va Pochcha Ota kabi shahru qishloqlarga sayohat qilgan va ular haqida chiroyli she'riy asarlar yaratgan. Ularda XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlaridagi hayot manzaralarini muxtasaru mazmundor misralarida ifoda etib ketgan". [1]

Afsuski, shoir sayohatnomalarining barchasidan tanishish imkoniyatiga ega emasmiz. Hozircha qo'limizda birgina To'raqo'rg'ondan Pochcha Otaga bo'lgan sayru sayohati aks ettirilgan asarigina bor, xolos. Qolganlari ham topilib qolsa ajab emas. Eng ahamiyatlisi, yo'lnoma yo'sinda yozilgan, har biri besh satri muxammas tarzidagi 48 banddan iborat asarda tilning lingvopoyetik va lingvokulturologik qatlamidan ijodkor mohirona foydalangani yaqqol ko'zga tashlanadi. Bundan, uning badiiy tafakkuri yuqori bo'lganini tilimiz taraqqiyotiga faol hissa qo'shganini idrok etishimiz mumkin.

TADQIQOT USULLARI

Maqolada matn tahlil qilishning nazariy masalalari haqida soʻz boradi. Hayratiy “Sayohatnoma”si tahlil va talqin qilinadi. Undagi matn qismlari tavsiflanadi. Biz ushbu maqolamizda sayohatnomadagi madaniy soʻzlarning asar matnidagi oʻrni, matndagi maʼno mohiyati xususida fikr yuritamiz. Chunki: “...badiiy matn maʼnosining tagiga yetish uchun ayni paytda badiiy matnning oʻziga xos lisoniy xususiyatlari qonuniyatlarini, shuningdek, matn oid boʻlgan davr, matn ijodkorining shaxsiyati, qarashlari, u mansub boʻlgan adabiy oqimning asosiy xususiyatidagi ustuvor milliy-madaniy qoidalar va boshqalarni ham bilish kerak boʻladi”. [2]

NATIJALAR VA MULOHAZALAR

Oʻz davrining peshqadam ziyolisi boʻlmish shoir qadrdonlari bilan oʻlkamizning xushhavo, xushmanzara joylariga charchoq yozib, ziyorat qilish maqsadida yoʻlga chiqar ekan, koʻzi bilan koʻrgan, qulogʻi bilan eshitgan, koʻngli bilan his etgan holatlarni qalamga oladi. U shunchaki yoʻl kundaligini qoralamaydi, aksincha, inson va jamiyat, inson va tabiat munosabatlari asnosidagi taassurot hamda tuyumlarini qalbidan oʻtkazib, ularga mos soʻzlarni saralab satrlarga saflaydi. Har bandning soʻnggi beshinchi misrasi oxirida takrorlanuvchi “yoh u”ga monand mazmun kashf etish uchun zarur badiiy ifodalarga tayanadi. Boshqacha aytganda, ziynatli soʻzu iboralarni qoʻllaydi. Lingvomadaniy birliklardan foydalanadi.

Ming uch yuz oʻttiz ikki boʻlgan **yili hijratni,**
Nisfi mahi shaʼbonda nekusida **soatni,**
Koʻngillara **haq soldi** tashviqi sayohatni,
Tafriz etibon oʻzga bu yaxshi azimatni,
Tushdik toʻla ul **soat bo hukmi qazo yo hu.** [3]

Sayohatnomaning boshlanish onlaridayoq madaniy leksik birliklar deyarli har satrda mavjud. Badiiy matndan shu maʼnoni anglayapmizki, hijriy yil hisobida 332 yilgi sayohat ekan, **yili hijrat** ishorasi esa, bizga melodiylarni aniqlash imkonini yaratadi. Hijratgacha boʻlgan 582 yilni koʻshsak, 1914 yil kelib chiqadi. Ikkinchi satr shaʼbon oyi yarmida eng yaxshi vaqtda yoʻlga oʻtlanishidan voqif etadi. Uchinchi satrdagi koʻngillara **haq soldi** degani hech bir harakat allohning irodasiz roʻy bermasligiga ishorayu iqroni ifodalaydi. Beshinchi satrdagi **bo hukmi qazoqda** – yaʼni, allohning hukmi, taqdir tufayli yoʻlga tushilganiga quvonch, olqish, shukrona izhori mavjud. Sheʼrda tarixiylik zamonviylikka uygʻun holatda, odamning izmu va azmi olam sarvariga bogʻliqligi juda chiroyli eʼtiroflarda mujassamlangan. **Soat** soʻzini oʻsha paytda vaqt oʻlchovi, emas, umuman, vaqt maʼnosida qoʻllanganini koʻryapmiz. Agar teranroq idrokilasak, yillar va asrlar oʻtib, soat soʻzining maʼnosi torayib, madaniy ashyoga aylanganini payqaymiz. Avvalgi mavhum maʼnosi endi aniq vazifa bajaruvchi mato nomi sifatida konkretlik kasb etganini bilib olamiz.

Shoir vaqt qisqa va uzunligini anglatuvchi xalqning turgʻun va oʻzgarmas iboralaridan oʻrinli foydalangan. “To koʻz **yumib-ochguncha** yetdik Kela soy ichra” deb tasvir keltirsa, oyoq chigilini yozib – **piyoda yurdik** maʼnosida “Yoʻllarda yetib bordik **ham yozai po yo hu**” deya taʼkidlaydi. Aravada manzil sari intilishayotgani bois ibora oldidan **ham** koʻmakchisini qoʻshib qoʻyishi shundan.

Maʼlumki har kanday til yoki dialektida boshqa tilga bir soʻz bilan tarjima qilib boʻlmaydigan soʻzlar uchraydi. Ular muqobilsiz leksikaga kiradi. Bunday leksik atamalar xalq madaniyatiga xos hodisalarni aks ettiradi. Masalan, oʻzbekning **palov** atamasi oʻziga xos milliy taom nomi sanaladi. Va hech bir marosim dasturxonga palov tortilmasdan tugagan hisoblanmaydi. Palovning sinonimi **osh** soʻzi boʻlib, Hayratiy asosan shu variantini xush koʻrgan:

“Onlardin olib ruxsat **osh vaqti** Boyastonga” qabilida misra tuzgan. Oʻzbeklarning palovi oqshomda damlanadi. Demak, osh vaqti – kechqurun maʼnosini anglatadi.

Tabiiyki, uch doʻst sayru sayohat chogʻida koʻp yaxshi odamlarga duch keladi. Oʻsha paytda qishloqlar guzaridagi koʻpchilik toʻplanib, dam oladigan, oʻtgan-ketgan qoʻnib oʻtuvchi joylar **doʻkon** atalgan ekan. Keyinchalik, choyxona, baʼzan samovar (ruslar kelgach, ogʻzaki nutqda shunday atash urf boʻlgan)ga aylanib ketgan.

*Seshanba chiqib andin to baldai Kosona,
Tush vaqti kelib tushdik bir xush nashʼa **doʻkona,**
Rohat yetishib ul dam jismimiz ila jona,
Mushkullarimiz goʻyo boʻldi badal osona,
Yotgan kabi bemori dardiga davo yo hu.*

Shoir do'stlari bilan qishloqma-qishloq o'tib Nanoydagi do'konga ham to'xtaydi. Endi o'zbekning mehr-oqibati, mehmonni birinchi galda choy bilan siylashiga alohida urg'u beradi:

Bir **choyni** ichib andin masjidga kirib ildam,
Haq shukrini kelturdik bu yerda bo'lib hurrām,
 Bir mullasi bor erkan kyeldi yugurib ul dam,
 Joy qildiyu **choy** damlab berdi biza ul odam,
 Farhad yetishib bizga maydon ni aro yo hu.

Ijodkor milliy qadriyatimizni ulug'lash bilan birga namoz o'qishdek ibodatni behad chiroyli ibora – **haq shukrini kelturdik** birikmasi orqali – lingvopoetikani lingvokulturologiyaga uyg'unlashtirib ifodalagan.

Ayniqsa, ziyorat manzili – tog' etagidagi soy yoqasida joylashgan Pochcha Ota ta'rifiga madaniy leksik birliklarni yanada ko'plab qo'llab, matn ta'sirchanligi hamda ma'nodorligini oshirishga erishgan: "To kirdik o'shal yo'lga altofi ilohiydin, **Himmat kamarin belga bog'lab bo'la** bo taskin":

"Mag'rib tarafi yo'lning bir katta ajab soyi, **Obi ani kavsardek** yo'q zarracha yo'q loyi"; "Lab tashnalarga beshak bu **obi baqo** yo hu".

Bu satrlardagi mumtoz adabiy so'zlarni sharhlasak, yanada tushunchamiz yorqinlanadi: **obi ani kavsardek** - suvi jannat suvlaridek; **obi baqo** – boqiylik suvi.

Asar tilining mukammalligini ta'minlovchi yana bir omil – xayoliy, mifologik obrazlardan so'ng hayotiy, ko'zga yaqqol ko'rinib turgan, yorug' dunyoga mashhur presyudent nomlar qiyosga tanlanganidir: "Yo'qdir muning imsoli na **Rumda**, na **Londonda**".

Shoir o'z o'lkasi qiyofasining betakrorligiga tasdiq sifatida ikki dunyoga dovrugli shaharni tilga olib, hatto o'sha yerda ham bunday jannatona joy yo'qligini uqtiradi o'quvchiga.

Yuqoridagi maqtovlari go'yoki kamdek tag'in tavsifni davom ettiradi:

"**Farg'onaga** ziynatdur, ham zevari **Turkiston**, ta'rifi muning ketgan to **Chinu Xito** yo hu", - deb yozadi faxr bilan. Qarang, aslida Chinu Xitoni dunyo taniydi-yu, shoir esa o'quvchini shu taniqli yurtlarga ham o'z yurti ta'rifi ketganidan shohidlaydi. Shuning uchun shoir madaniy leksikani ma'no-mazmun talqiniga zo'r mahorat bilan singdirib yuborgan deyishga to'la haqlimiz.

XULOSA

"Sayohatnoma" mutolaasini davom ettirgan sari madaniy leksik birliklarni tez-tez uchrataveramiz. Ayniqsa, mifologiyalashtirilgan til birliklari tasavvurimizni tabora tiniqlashtiradi va kengaytiradi. Axir ziyorat inson ko'nglini poklaydi, ezgu tuyg'ularga to'ldiradi, ilohiy zavq baxsh etadi. Shoir Hayratiy xuddi shunday holat ifodasini mifonim vositasida yuqori darajaga ko'taradi: "Boshlarga solur soya chun **boli Humo** yo hu", ya'ni bu joyda baxt qushining qanoti boshlarga soya tashlab turgani ta'kidini keltiradi. Yaxshi bilamizki, sharqda afsonaviy Humo qushi - tole, saodat ramzi arxitektipi, turg'un obrazidir.

"Lingvomadaniy birlik lisoniy belgining ma'nosi va madaniy mazmun birikuvidan tarkib topuvchi semantikasida madaniy axborot yaqqol namoyon bo'luvchi til birligidir. Jumladan, frazeologizmlar, etalonlar, ramzlar, metaforalar, turg'un o'xshatishlar, nutqiy etiketlar urf-odat va marosimga doir so'zlar, topishmoqlar, milliy realiyalar, arxetiplar, mifologemalar, lakunalar, presedent birliklar". [4] adabiy-badiiy asar saviyasini ko'tarib turadi. Uning umrboqiyilgini ta'minlaydi. Mazkur sayohatnomada hali yana bir talay tahlilbop o'rinlar borki, bular navbatdagi maqolamizga asos bo'lib xizmat qiladi, albatta.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Orifboyev D. Shoir Hayrat To'raqo'rg'oniy. "Mash'al" gazetasi. 1972. №108.4-bet. (Orifboev D. Poet Hayrat To'raqo'rg'oniy. "Mash'al" newspaper. 1972. No. 108. Page 4.)
2. Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. Toshkent: Fan, 2008. 136-137-betlar. Yoldoshev M. Linvopoetics of literary text. Tashkent: Science, 2008. Pages 136-137.)
3. Sodiq Sayhunda saqlanayotgan qo'lyozma devondan. Keyingi misollar ham shu manbadan keltirilgan. (From the manuscript archive kept in Sodiq Sayhun. The following examples are also from this source.)
4. Xudoyberdiyeva D. Linvokulturologiya terminlarining qisqacha lug'ati. Toshkent. – Turon zamin ziyo. 2015. 26-bet. (Khudoyberdiyeva D. A brief glossary of linguistic terms. Tashkent. - Turan is on the ground. 2015. Page 26.)